
KARANTIN DAVRIDA SIZ UCHUN XIZMATDAMIZ

Butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham karantin davri. Bu barchamiz uchun sinov. Shunday kunlarda insonlar hamjihat bo'lishlari, bir-birini qo'llab-quvvatlashi har qachongidan muhim. Ayniqsa, aholini kunlik oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Farg'ona shahar hokimligi, sektor rahbarlari va Bosh prokuratura huzuridagi Departament organlari tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholining kerakli oziq-ovqat, dori-darmon, tomorqa mahsulotlarini sotib olishi va ularga qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida Farg'ona shahridagi barcha mahallalarda arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalari tashkil etildi.

- Bugun asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari, ro'zg'or uchun zarur bo'lgan ko'chatlar ham olib kelindi, - deydi Afrosiyob mahallasida yashovchi Z.Ibrohimova. - Bunday yarmarkalarni bosh-qosh bo'lib tashkil etayotganlarga minnatdorlik bildirmoqchiman. Sababi biz o'zimiz uchun kerakli mahsulotlarni tezda xarid qilib, asosiy vaqtimizni uyda o'tkazyapmiz.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2020-04-06 20:56:18